

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KO'CHMA MA'NONING SUBYEKTIV BO'YOQ KASB ETISHIDA SINEKDOXA HODISASINING O'RNI

Mirzakarimova Z.D.

Angren universiteti F.f.n.,dotsent

Annotatsiya: Bu maqolada so'zlarning sinekdoxa natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nosi subyektiv bo'yoqqa ega bo'lishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sinekdoxa,subyektiv bo'yoq,ko'chma ma'no,obyekt,ijobiy belgi,salbiy subyektiv bo'yoq,ijobiy subyektiv bo'yoq.

So'zlarning sinekdoxa natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nosi ham subyektiv bo'yoqqa ega bo'lishi mumkin. Subyektiv bo'yoqning yuzaga kelishi esa ko'chma ma'no hosil bo'lishi ucvhun asos bo'lgan leksik ma'noda ifoda etgan obyekt bilan bog'liqdir, chunki mazkur obyektga bo'lgan munosabat ijobiy yoki salbiy bo'lishi sinekdoxa natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'noning bo'yog'i qanday bo'lishini belgilab beradi.(1)

So'zning hosil bo'lgan ko'chma ma'nosi orqali ifoda etilgan obyektg asos, ma'no ifoda etgan obyekt bo'lak bo'lib, bo'lak nomi bilan u ifoda etiladi. Bo'lak kechinma yoki ermak uchun asos bo'lsa va uning nomi bilan butun ifodalansa, hosil bo'lgan ko'chma ma'no subyektiv bo'yoqqa ega bo'ladi. Bu subyektiv bo'yoq sinekdoxa yo'li bilan hosil bo'lgan ko'chma ma'noda ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.(2)

O'zbek tilida so'zlarning sinekdoxa natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nosi subyektiv bo'yoqqa ega bo'lishi boshqa hodisalar natijasida, ya'ni metafora, metonimiya natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nolari subyektiv bo'yoqqa ega bo'lishi kabi keng tarqalgan emas. Shu bilan birga ot turkumiga oid so'zlarning sinekdoxa natijasida hosil bo'lgan ma'nolarigina subyektiv bo'yoqqa ega. Demak, ularning tarqalishi so'z turkumi doirasi nuqtai nazaridan ham chegaralangan. Shuningdek, so'zning ko'chma ma'nolari sinekdoxa natijasida har qanday holatta hosil bo'lishi ham subyektiv bo'yoqni kasb etavermaydi. Sinekdoxa so'zlarda faqat nutqiy holatda sodir bo'lsagina, hosil bo'lgan ko'chma ma'no subyektiv bo'yoqqa ega bo'ladi.(3)



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Masalan: Chanqab kelganda-ku, biror tashnalab,

Albatta suv ichar miriqib to`yar. (A.Oripov).

Yuqoridagi misrada lab so`zi odam ma`nosini ifoda etib kelgan. Bunda a`zo bilan odam atalgan. Lab so`zining genetic ma`nosi ifoda etgan obyekt insonning yaxshilik, kechinmalar uchun qo`llanadigan a`zosi hisoblanadi. Shunga ko`ra lab so`zi ko`chma ma`nosi ijobiy subyektiv bo`yoq kasb etgan.

Quyida ot turkumiga oid so`zlarni sinekdoxa natijasida ijobiy subyektiv bo`yoqli ko`chma ma`no hosil bo`lishiga yana misol keltiramiz, masalan: *Tuyoqqa tuyoq qo`shilsa pada, odamga odam qo`shilsa el (Maqol.) Ul qaro ko`z ko`zlariga surma bejo tortadi (Furqat.) Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana, Tira bo`ldi qozg`orim ul qaro qoshdin yana (Bobur).*

Bu gaplarda tuyoq so`zi tuyoqli jonivor ko`chma ma`nosini, ko`zu qosh so`zlari esa jonon ma`nosini ifoda etib kelgan. Ot turkumiga oid tuyoq, ko`z qosh so`zlari ko`chma ma`nolari ijobiy subyektiv bo`yog`i ham lab so`zi ko`chma ma`nosi bo`yog`i kabi yo`l bilan hosil bo`lgan.

Sinekdoxa natijasida ot turkumi doirasidagi so`zlar ko`chma ma`nosi faqat ijobiy subyektiv bo`yoq kasb etmay, salbiy subyektiv bo`yoq ham kasb etadi. Masalan: *Burunboy mening o`rinbosarim – burni katta Komilov (S.Ahmad).*

Bu gapdagi burun so`zi odam ma`nosini ifoda etib kelgan. Bunda ham a`zo bilan odam atalgan.

Burun so`zining genetik ma`nosi ifoda etgan obyekt insonning salbiy ko`rinishli a`zosini bildiruvchi a`zosi hisoblanadi. Shunga ko`ra burun so`zining ko`chma ma`nosi subyektiv bo`yoq kasb etgan.(4)

Quyida ot turkumiga oid so`zlarning sinekdoxa natijasida subyektiv bo`yoqli ko`chma ma`no hosil bo`lishiga yana bir misol keltiramiz: *Ko`rdingizm, i u to`rvasoqol o`lgurning og`zidan chiqayotgan gaplarni?! – dedi Rohat kelinoyi (Oybek).*

Bu gapdagi soqol so`zi odam ma`nosini ifoda etib kelgan. Soqol so`zi ko`chma ma`nosining subyektiv bo`yog`i ham burun so`zi ko`chma ma`nosi bo`yog`i kabi yo`l bilan hosil bo`lgan.

Sinekdoxa nayijasida ot turkumiga oid so`zlarda ko`chma ma`no hosil bo`lishi ancha keng tarqalgan bo`lsa ham,(5) ularning bo`yoq kasb etishi juda kam. Hatto barmoq bilan sanarli darajada.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

To'plagan tarqatmalarimiz ichida oltita shunga oid misol uchrab, shundan to'rttasi ijobiy subyektiv bo'yoq, ikkitasi salbiy subyektiv bo'yoq kasb etadi.

Xullas, sinekdoxa nutqiy holatda sodir bo'lsa, uning natijasida so'zlarda hosil bo'lgan ko'chma ma'nolar subyektiv bo'yoq kasb etadi. Bu bo'yoq ijobiy ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. So'zlar faqat ot turkumida bo'lsagina sinekdoxa natijasida hosil qilgan ko'chma ma'nolari subyektiv bo'yoqqa ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kamolova M.N., Azimova U.A. O'zbek tili. - Toshkent, 2021. - B. 124.
2. Mirtojyev M.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-jild. - Toshkent: Universitet, 2004. - B. 191.
3. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalanishining sintaktik usuli. - Toshkent: Fan, 1987. - B. 69.
4. Mirzakarimova Z.D. "O'tgan kunlar" leksikasida turkiy qatlam // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. - Toshkent, 2008. - B. 109-110.
5. Mirtojyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. - Toshkent: Universitet, 2000. - B. 158.